

Fors adabiyotida shakllangan tasavvufiy motivlar - Sharq adabiy tafakkurining yuksak bosqichidir. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroyi kabi ijodkorlar tasavvufni estetik, poetik va falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil etganlar. Ularning g'oyalari o'zbek mumtoz adabiyotiga, ayniqsa Alisher Navoiy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Bu ta'sir faqat shakliy emas, balki mazmuniy, g'oyaviy va falsafiy jihatdan chuqur mushtaraklikni ifoda etadi. Tarixiy-madaniy rishtalar natijasida ikki adabiy maktabning bir-birini boyitganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda ushbu adabiy merosni chuqur tadqiq etish - nafaqat adabiy tarix uchun, balki ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Attor, F. Mantiq ut-tayr. – Tehron: Zavvar Kitobxonasi, 2003.
2. Rumi, J. Masnaviy Ma'naviy. 6 jildlik. – Tehron: Amir Kabir Nashriyoti, 1995.
3. Hofiz Sheroyi. G'azallar devoni. – Dushanbe: Adabiyot va san'at, 1987.
4. Sa'diy Sheroyi. Guliston va Bo'ston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1991.
5. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
6. Navoiy, A. G'azallar devoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2010.
7. Shukurilla, U. Tasavvuf va mumtoz adabiyot. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Salohiy, B. Sharq mumtoz adabiyotida ishq konsepti. // "Adabiyotshunoslik ilmiy jurnal", 2019, №4. – B. 45–52.
9. Sevar Ilyasovna Shomurodova. (2024). Analysis of the Research on Babur's Heritage. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(12), 22–24. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/6329>
10. Qurbonov, M. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Samarqand: Samarqand Universiteti nashriyoti, 2007.
11. Lewisohn, L. The Philosophy of Ecstasy: Rumi and the Sufi Tradition. – Bloomington: World Wisdom, 2006.

UDK: 821.111; 821.512.133

LEV TOLSTOYNING ANNA KARENINA ASARIDAGI BOLALAR SHAXSIYATI

*Shahobova Sitora Baxromovna,
Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies,
E-mail: sitorashahobova28@gmail.com*

*Khallieva Gulnoz Iskandarovna,
Professor, Uzbekistan State World Language University,
E-mail: gulnoz7410@mail.ru*

Annotations: Quyidagi maqolada buyuk rus romannavisi Lev Tolstoyning Anna Karenina asaridagi bolalar qahramonlari haqida fikr va mulohazalar berilgan. Garchi kitob kata hajmda bo'lsada, yosh bolalar qahramonlari sanoqlidir, lekin ular asarning foqealar rivoji uchun asosiy ko'prik bo'la olgan. Maqolada bolalar shaxsiyati,oila va jamiyatning bola psixologiyasiga ta'siri Anna Karenina romanidagi bolalar orqali ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar: *bola, qahramon, shaxsiyat, oila, ota-onas, jamiyat, xiyonat, bolalik*

Annotatsiya: В данной статье представлены мысли и размышления о детских персонажах в произведении великого русского романиста Льва Толстого "Анна Каренина". Хотя книга большого объема, героев маленьких детей немного, но они стали главным мостом для развития событий в произведении. В статье через детей из романа Анны Карениной показано влияние детской личности, семьи и общества на детскую психологию.

Ключевые слова: *ребенок, герой, личность, семья, родители, общество, предательство, детство*

Annotation: The following article gives an opinion and experiences about the characters of children in the story of Anna Karenina by Russian novelist Leo Tolstoy. The article shows the personality of children, the influence of society on children's psychology in the novel of Anna Karenina.

Key words: *child, hero, personality, family, parents, society, betrayal, childhood.*

Anna Karenina jahon adabiyoti durdonalaridan biri hisoblanadi. Asar 1875 yildan boshlab kichik qismlarga bo'lib-bo'lib chop etila boshlagan va 1877 yilgacha davom etgan. Asarda asosan umumiyl uch juftlik ya'ni, bosh qahramon Anna Varonskiyning muhabbatini va ularning fojeaviy qismatlari, Levinning hayotda uchragan har qanday qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'zligini kashf qilganligi va Kity bilan baxtga erishganligi va Dolli bilan Stefan Obolonskiyning turmush tarzları bir chiziqda tasvirlangan (Angela N. Blount, 2018). Yozuvchi shu ikki qahramonning taqdirini yoritib berar ekan beixtiyor Rossiya davlatining XIX asrdagi voqeasi hodisalarini o'z o'quvchisiga yetqazib bera olgan. XIX asrdagi Rossiya jamiyatini undagi aristokratlar odob axloqlari, oila va burch, taqdir va erk, muhabbat va xiyonat, jamiyat va shaxs asarda chuqur tahlil qilingan". Har qanday baxtli oila bir biriga o'xshashdir va ha bir baxtsiz oila o'z yo'lida baxtsizdir" deb yozilgan sitata butun asarning asosiy g'oyasini bera olgan. Shunday muammoli jamiyatni asar orqali tahlil qilar ekanmiz, o'sha davr bolalarini shunchaki chetda qoldirish mushkul. Bolalarning hayoti va taqdiri, go'zal yoshlik va beboshligi asarga o'zgacha ruh bag'ishlagan. Kitobxon asar bolalari o'ynasa xayolan o'ynaydi, yig'lasa ular bilan yig'lab, xuddi ularni ovutgandek bo'ladi. Har bir jamiyatda bo'lganidek, baxtli jamiyatda o'sib ulg'aygan bolaning ruhiyati bilan baxtsiz oilada tarbiya topgan farzandlar orasida bepoyon farq mavjud. Asarni o'qish jarayonida bir nechta yosh qahramonlar bilan o'sha davrga qaytib qolishimiz mumkin.

Bosh qahramon Anna va Aleksey Kareninalarning farzandlari Seryoja asar boshidan o'quvhi bilan birga bo'ladi. Hamma jamiyatdagi boy qatlama bolalaridek Seryoja ham boshida to'liq oilada tarbiya topadi. Asosan onasi bilan birga bo'ladi. Yoshligidan har xil sohalarga qiziqtiladi. Otasi yuqori mansabdor shaxs bo'lganligi uchunmi uni yaxshi ko'rsada har doim u bilan suhbat qilishdan hadiksirab turardi. Anna sabab ahyon-ahyonda Varonskiyga duch kelganda bolalarcha onasini begona erkakdan qizg'onardi. U bilan uchrashib qolganda beixtiyor otasidadek viqor bilan yurardi, xuddi ko'zlari bilan "Bu yerda nima qilyapsan?" degandek qarash qilardi

(Tolstoy, 1980). Ammo onasi Anna Kareninaning xiyonati sabab, Annaning o'z o'g'lini xohlagan paytda ko'rish huquqidan mahrum qilingan edi. Seryoja esa onasini sog'inib usiz azob chekar edi. Bu holat ayniqsa u tog'asi Stefan Arkadyevich bilan bo'lган uchrashuvda yaqqol ko'zga ko'rindi. Tog'asi bilan suhbat chog'ida onasini eslamaslikni takrorlasada, aslida u azoblanayotganligini bildirib qo'yadi. Shuning uchun ham u juda siqilib yig'laydi va uni yolg'iz qo'yishlarini, hech kimni ko'rish istagi yo'qligini aytadi (Petrov, 2021). O'zi istagan paytda u bilan birga bo'la olmasligi unga azob berardi. Har qanday zamonda xiyonat qoralanadi, ayniqsa u ayol zoti tomonidan sodir etilgan bo'lsa. O'z oilasidan, ayniqsa farzandining kamolotini qurbon qilgan Anna jamiyatda qidirgan baxtini topa olmaydi hattoki u yana farzandli bo'lsada. Anna Varonskiy ismli, oliy martabali, yosh va ko'rkam yigitga ko'ngil qo'ydi, garchi u sog'lom bir oilaning mag'rur bekasi bo'lsa ham. Ular qiz farzandli bo'lishdi. Farzand orqali oila o'z baxtini topadigandek tuyuladi kitobxonga ammo xiyonat assosida, boshqalarning baxtsizligi evaziga qurilgan oila baxt va xotirjamlik topa olishmaydi. Onasi Anna Kareninani o'limi haqidagi xabarga hech ishonmaydi va onasining mehrini juda ko'p qumsaydi. Seryoja orqali Lev Tolstoy jamiyatda ajrashgan oilalarning bolalarini qanday taqdir kutayotganini tasvirlamoqchi bo'ladi. Aynan Seryoja qahramoni kitobxonni ochiq qolgan savollarga javob berishga undaydi. Chunki asarda uning taqdirigina ochiq yakunlanmagan va asarning ayniqsa bosh qahramon Annaning fojeaviy taqdirini aynan shu qahramon bilan yanada dramatik talqin qiladi.

Romanni keng boyitgan va o'quvchi e'tiborini torta oladigan yana bir yosh qahramon Levin va Kitining farzandi Dmitriydir. Dmitriy qahramoni orqali romannavis Rossiya jamiyatidagi baxtli oilada unib o'sgan baxtli farzand timsolini yaratgan. Albatta asar yakunida paydo bo'lgan Dmitriy obrazining hissiyot va kechinmalari haqida ma'lumot yo'q. Biroq, birgina shu bola uning otasi Levin obrazini hayotga qarashini o'zgartiradi. Otasi allanechuk odamni ta'sirlantiradigan hissiyotlarni va mas'uliyatni chuqur his qiladi. Muhabbatdan yaralgan bu farzand Levin va uning onasi uchun to'liq baxt hissini bera oladi.

Anni obrazi asarda ko'p tilga olinmasada, asardagi muammolarning asosiy qismi u bilan bog'liqdir. Anni Anna Karenina va Varonskiyning muhabbatni mevasidek tuyulsada, keyinroq Annaning iztiroblari sabachisi bo'ladi. Onasi Annini juda sevadi, Anni onasining yonida bo'lsada, onasi unga birinchi farzandi Seryoja kabi mehr bera olmaydi, ya'ni o'g'lini sevganchalik qizini seva olmaydi. Bu obraz Annani jamiyatdan va onalik baxtidan mahrum qilgandek. O'g'li Seryoja uzoqdaligi uchun baxtni his qilmaganidek, Anni yonida bo'lsa ham Anna baxt hissini tuya olmaydi. Annaning ruhan azoblanishi uni jamiyatdan uzib qo'yadi va fojeaviy o'limi sabab, uning kichkinagini qizchasi Anni Varonskiylar oilasi bilan qoladi. Garchi uning keyingi taqdiri ham xuddi Seryojadek ochiq qolgan bo'lsada, ko'p savollarni kitobxonlarda qoldirgan. Kitobxon notinch jamiyatda o'sayotgan bolalarning keyingi taqdiri haqida o'zlari xulosa chiqara oladilar.

Asarning boshida gavdalantirilgan Obolonskiy va Dollining 6 nafar farzandlari ham romandagi voqealarning tashkillashtirib beradigan asosiy qahramonlardir. Sergey va Dollining 6 nafar shirin farzandlari bor. Ammo har bir

davrda, amaldorlar oilaviy hayoti mujmalroq bo’lganidek, bu oilada ham oilaviy kelishmovchiliklar yetarlicha edi. Sergey boy zodagonlardan va Rossiya davlati uchun xizmat qiladigan shaxs edi. Uning ayoli Dolli esa mehribon ona, faqat oilaviy shirin tashvishlar bilan band edi. Shirindan-shakar farzandlari u uchun eng qimmatli boyligi edi. Afsuski, ketma-ket farzand dunyoga keltirgan Dolli deyarli o’zi uchun yashamaydi. U farzanlarining tarbiyasi, ularni oq yuvub oq tarash bilan tongni tunga ulaydi va erining xiyonatidan azoblanadi.

Garchi Sergey ayoli va farzandlarini yaxshi ko’rsada, uning o’zi nima uchun ayoliga xiyonat qilganliginini tushunmas edi hamda bundan afsuslanar edi. Shunday muammoli vaziyatda, oilasini saqlab qolish uchun ham bolalarning o’rnii juda beqiyosdir. Begunoh farzandlari uchun mehribon ona Dolli turmush o’rtog’ini kechiradi va farzandlari uchun hammasiga ko’z yumadi. Dolli har doim bolalarining baxtli yashashi uchun harakat qilar va ularning tarbiyasi uchun alohida e’tibor berar edi. Farzandlari bilan yozda qishloqdagi uyiga dam olish uchun ketadi va o’sha yerda uzoq vaqt turmush o’rtig’isiz yashaydi. Kitobxon Dollining farzandlarini baxtli oilada yashagan deb taxmina qiladi, chunki har qanday bayram bo’ladimi yoki cherkovga borishmi, Dolli farzandlari uchun alohida oldindan tayyorgarlik ko’rar edi. Ular uchun alohida kiyimlar tiktirar edi. Dolli bolalariga o’zlarini cherkovda qanday tutishini qat’iy o’rgatardi. Ko’chada farzandlari bilan yurganida, u turmush o’rtog’ining xiyonitidan aziyat ko’rsada, o’zini baxtli ayolday mag’rur tutardi, chunki bolalari uning hayotini mazmuni edi. Ayniqsa ular bilan birga suzish havzasiga suzishga borardi va bolalarining xursandligidan rohatlanardi. Hayot tashvishlari, ayniqsa ayol uchun og’ir yuk sanalmish xiyonatga farzandlari uchun ko’z yumgan ayol tarbiyalagan bolalar jamiyat va oila uchun foydali shaxs bo’lib yetishadi. Garchi romannavis Dollining farzandlarini shaxsiyatini va psixologiyasini asarda ochiq ifodalamagan bo’lsada, kitobxon osonlik bilan yosh bolalarining xarakterini kashf qila oladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Angela N.Blount (2018). Book Review:Anna Karenina by Leo Tolstoy
2. Lev Tolstoy Tanlangan asarlar.To’rtchu jild.Anna Karenina.G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1980.
3. Petrov Ivan (2021). Parenthood and Social Critique in Anna Karenina.
- 4.

PECULIARITIES OF THE CONCEPT OF HOMELAND IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

*Fayziyeva Adiba Xusnutdinovna
Senior teacher, Tashkent State University of Oriental Studies*

Annotation: This article analyzes proverbs in English and Uzbek from a linguocultural perspective and examines their status as phraseological units in paremiology. The study compares proverbs from the oral traditions of two cultures – Western and Eastern. Additionally, the concepts of “concept” and “notion” are defined based on scholars’ perspectives, and their differences are identified. English